

RESURLARNI SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY ASOSLARI

PhD Nasimdjano

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-3622-2573

dilkabutilka@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada resurslarni soliqqa tortishning nazariy asoslari, uning iqtisodiy mohiyati va davlat byudjeti barqarorligini ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda tabiiy, moliyaviy va inson resurslarini soliqqa tortishning nazariy yondashuvlari, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri hamda fiskal siyosatdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, resurs soliqlari tizimining rivojlanish bosqichlari, ularni belgilash prinsiplari va iqtisodiy nazariyalarning klassik, neoklassik hamda institutsional yondashuvlar nuqtai nazaridan ilmiy asoslari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari resurs soliqlari orqali davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: resurs soliqlari, soliqqa tortish nazariyasi, tabiiy resurslar, fiskal siyosat, iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik, soliq tushumlari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ РЕСУРСОВ

PhD Насимджанов Юнусжон

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются теоретические основы ресурсного налогообложения, его экономическая сущность и роль в обеспечении устойчивости государственного бюджета. В исследовании анализируются теоретические подходы к налогообложению природных, финансовых и человеческих ресурсов, их влияние на экономическую эффективность и их значение в фискальной политике. Также рассматриваются этапы развития системы ресурсного налогообложения, принципы их создания и научная база с точки зрения экономических теорий - классического, неоклассического и институционального подходов. Результаты исследования показывают возможности финансирования государственных программ социально-экономического развития, рационального использования природных ресурсов и обеспечения экологической устойчивости посредством ресурсных налогов.

Ключевые слова: ресурсные налоги, теория налогообложения, природные ресурсы, фискальная политика, экономическая эффективность, экологическая устойчивость, налоговые поступления, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF RESOURCE TAXATION

PhD Nasimdjano Yunusjon

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This scientific article discusses the theoretical foundations of resource taxation, its economic essence and role in ensuring the stability of the state budget. The study analyzes theoretical approaches to the taxation of natural, financial and human resources, their impact on economic efficiency and their significance in fiscal policy. It also examines the stages of development of the resource tax system, the principles of their establishment and the scientific basis from the point of view of economic theories - classical, neoclassical and institutional approaches. The results of the study show the possibilities of financing state socio-economic development programs, rational use of natural resources and ensuring environmental sustainability through resource taxes.*

Keywords: *resource taxes, taxation theory, natural resources, fiscal policy, economic efficiency, environmental sustainability, tax revenues, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslardan oqilona foydalanish va ularni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish davlat moliyaviy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Resurslarni soliqqa tortish nafaqat byudjet tushumlarini shakllantirishga, balki iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, ekologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Soliqqa tortishning nazariy asoslari iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, tabiiy boyliklarni qayta tiklash va ularni adolatli taqsimlash masalalarini o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, resurs soliqlari davlatning fiskal siyosatida ikki tomonlama vazifani bajaradi: bir tomondan, u budjet daromadlarini oshiradi, ikkinchi tomondan esa, iqtisodiy subyektlarni resurslardan tejankor va ekologik jihatdan mas'uliyatli foydalanishga undaydi. Mazkur tadqiqotda resurs soliqlarining nazariy asoslari, ularning iqtisodiy mohiyati, tasnifi, fiskal siyosatdagi o'rne va ularni takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbek olimlardan Safarov (2006) "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tabiiy resurslardan samarali foydalanishini soliqlar vositasida rag'batlantirish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishida korxonalar va tashkilotlar tomonidan tabiiy resurslar bilan bog'liq ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan kam chiqitli investitsiyalar uchun rag'batlantiruvchi imtiyozlarni qo'llash, tabiiy resurs soliqlarini ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimida ham qo'llashni ilmiy asoslagan, noqishloq xo'jalik korxonalaridan olinayotgan yer solig'ini hisoblab chiqish va undirishda ular foydalanayotgan yerning kadastr qiymatidan undirish mexanizmini joriy qilish masalasini taklif qilgan, yer osti boyliklaridan olinadigan soliqlarni hisoblashda hisobga olish usulini taklif etgan hamda bu soliqni undirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqqan.

Qurbanov (2020) esa o'zining dissertatsion va monografik tadqiqotlari asnosida O'zbekistonda "alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqaruvchi korxonalarda suv resurslaridan tejankor va samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida ularga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etish taklifini ishlab chiqqan, shuningdek, avtotransport vositalarini yuvishga ixtisoslashgan korxonalar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni belgilashni asoslagan, suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashda tadbirkorlik sub'ektlarining yillik yalpi tushumi 1 mlrd. so'mdan oshgan taqdirda suv

resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari tarkibiga kiritilishi taklifi" ni ishlab chiqqan.

Toshqulov (2021) qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari soliq to'lovchilarning soliq to'lovchi sifatida maqomini aniqlash, umumbelgilangan tartibda soliqqa tortish, qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish maqsadida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha pasaytirilgan stavkalarni qo'llash, yangi barpo etiladigan bog', tokzor va tutzorlar egallagan yerlarni soliqlar vositasida rag'batlantirish masalalarining metodologik yo'nalishlarini ishlab chiqqan.

Iqtisodchi Kuznesov (1998) tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab quvvatlash masalalarini nazariy jihatdan tizimlashtirib, jarayonli paradigma sifatida uning bir qancha muhim ilmiy iqtisodiy tadqiqot qoidalari yoritib bergan. Xususan, "Moliyaviy qo'llab quvvatlash" konsepsiyasi pul mablag'lari yoki moddiy aktivlarning kombinatsiyasi sifatida taqdim etilishini e'tirof etadi.

Amerikalik iqtisodchilar Zvi Bodi va Robert Mertonlar (2013) moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimiga aniqlik kiritib, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi sifatida ma'lum ob'ektlarga nisbatan qabul qilinadigan tadbirlarni amalga oshirish harakatlari majmuasi va ketma ketligi ekanligini ilgari surishgan. Ular moliyaviy ta'minot bilan bog'liq qo'llab quvvatlash tizimi moliyaviy kategoriya sifatida moliyaning iqtisodiy mohiyati va funksiyalariga asoslanishi lozimligini e'tirof etishadi.

Iqtisodchi Barulin (2010), moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimini ikki tomonlama jarayon sifatida ko'rib o'tadi. Uning fikricha moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi, alohida iqtisodiy agentlarni moliyaviy ta'minot tizimini ma'lum noaniqliklar sharoitida optimal ta'minlashni muvofiqlashtirish hisoblanadi.

Iqtisodchi Ziyatkovskiyning (2000) fikricha, moliyaviy qo'llab quvvatlash yahlit tizim sifatida jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini barqaror rivojlanishini moliyaviy ta'minlash uchun qulay muhit yaratadigan moliyalashtirish manbalari va shakllari tizimidir.

Sokolskaya (2014) qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimiga aniqlik kiritib, qishloq xo'jaligi tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy va aylanma, xususiy va qarz mablag'lar bilan ta'minlash, yetarli hajmdagi mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash uchun qulay moliyaviy shart sharoit yaratish tizimi ekanligini ta'kidlaydi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jamiyatda ishlab chiqarish munosabatlarining paydo bo'lishi bilanoq, resurslarga bo'lgan ehtiyoj oshib borgan. Ammo, tarixiy, ilmiy-mantiqiy va iqtisodiy jihatdan olib qaralganda resurslar ishlab chiqarish munosabatlari hali yuzaga kelmagan davrdanoq mavjud bo'lgan, masalan, tabiiy resurslar xatto insoniyat paydo bo'lmasdan oldin tabiiy-geologik va biologik jihatdan mavjud bo'lgan. Insoniyat yashash uchun kurash asnosida dastlab tabiiy resurslardan foydalana boshlaganki, resurslarga iqtisodiy tus bera boshlagan va ularga ana shunday munosabatda bo'lgan. Insoniyat o'z manfaatlari yo'lida bu kabi tabiiy resurslarni kashf qila boshlagan, ya'ni ularning iqtisodiy ahamiyati va rolini o'rgana borib, ularning nafililik darajasini ham aniqlab borgan. Demakki, tabiiy resurslarni iqtisodiy resurslarga aylana boshlanishida, qadimgi odamlarning jamiyatda yashab qolishi uchun tabiat bilan muloqot qilishda tabiiy resurslarga kun ko'rish maqsadida munosabatda bo'lishi muhim rol o'ynagan.


Jamiyatning ishlab chiqarish sohasining anchayin rivojlanib, alohida soha sifatida shakllanishi bilanoq, tabiiy resurslarning bir qismi iqtisodiy resursga aylana borib, insonlarning resurslarga bo'lgan munosabatlari o'zgara boshladi va resurslarni ikki guruhga: tabiiy va iqtisodiy resurslarga bo'lgan holda foydalana boshlaganlar. Resurslarning bunday bo'linishi ularning mohiyatini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ham yuzaga kelgan va resurslarni o'rganish bilan bog'liq alohida fanlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bundan ko'rinadiki, resurslarning ichki mohiyati, ya'ni, ularning tabiiy, fizik va ximiyaviy xususiyatlariga qarab

ularni tovar ishlab chiqarishda foydalanish iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi bilan birga shakllanib bordi.

Tadqiqotimiz obyekti resurslarni soliqqa tortish masalalarni qamrab olganligi sababli ilmiy bilish nuqtayi nazaridan resurslarning shakllanishi, ularning turkumlanish asoslari, ularning ichki va tashqi xususiyatlari, eng muhimi ularga iqtisodiy resurs sifatidagi yondashuvlarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish muhim deb hisoblaymiz. Chunki, resurslarni soliqqa tortish jarayonida ularning ichki mohiyatini chuqur anglagan holda yondashilsa, resurslarni adolatli soliqqa tortish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Resurslar haqida fikr yuritar ekanmiz, ularga bo'lgan yondashuvlarning evolyutsion shakllanishiga qaraydigan bo'lsak, dastlab ozuqa manbayi va vositasi sifatida, keyinchalik mehnat qurollari sifatida ham, taraqqiyotning keyingi bosqichlarida ularga mehnat qurollari sifatida, jamiyatda manufakturaning yuzaga kelishi davrlarida esa ishlab chiqarishning asoslari sifatida, jamiyatda sanoatlashgan ishlab chiqarishga asoslanish davrlarida esa, takror ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlarning muhim omili sifatida yondashilganligin ko'rish mumkin. Jamiyatning texnik taraqqiyot darajasida rivojlanishidan tortib bugungi davrlarga qadar resurslarga tabiiy-iqtisodiy-intellektual omil sifatida yonashilmoqda.

Ilmiy bilish nazariyasiga asoslanib tadqiqotlarimizni davom ettiradigan bo'lsak resurslarning iqtisodiy mohiyatini ularning tabiiy xususiyatlari bilan parallel ravishda o'rganishni taqozo etadi. Shundan kelib chiqqan holda resurs kategoriyasi (tushunchasi)ning dastlab lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, milliy manbalar, jumladan, "O'zbek tilining izohli lug'atida resursga –"inson turmush sharoitini yanada yaxshilash uchun zarur bo'ladigan narsalarning zaxirasi"¹ sifatida ta'rif berilgan.



1-rasm. Resurslarga yondashuvlarning shakllanishi

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasining "R" harfi to'plamida esa quyidagicha, "Resurslar (frans. ressource – yordamchi vosita) – pul mablag'lari, boylik, zaxira, imkoniyatlar, davlat budjetida daromad manbalari, tabiiy, iqtisodiy, mehnat, valyuta va boshqa resurs bo'lishi

¹ Ўзбек тилининг изохли луғати. 49 б.

<https://n.ziyouz.com/books/uzbek-tilining-izohli-lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20R.pdf>

mumkin”² deb ta’rif berilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida (“T” harfi to‘plamida), tabiat resurslarining ma’nosi keltirilgan. Ya’ni, “tabiat resurslari, tabiiy boyliklar – jamiyatning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida xo‘jalikda foydalaniladigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo‘lgan, uni o‘rab turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari, energiya manbalaridir”³.

Ayrim xalqaro manbalarda keltirilishicha, (masalan, <https://ru.wikipedia.org>.) “resurs fransuz tilidan olingan bo‘lib, ehtiyojlar, ehtiyojlarni qoplash manbayi, shaxs yoki odamlarning har qanday faoliyatini amalga oshirishning miqdoriy jihatdan o‘lchanadigan imkoniyati, ma’lum o‘zgarishlar yordamida kerakli natijaga erishishga imkon beradigan shartlar sifatida ta’riflanib, ular ishlab chiqarishda umumlashgan shaklda resurslar omillar deb ataladi”⁴.

Resurslarni soliqqa tortish bo‘yicha iqtisodchi olim, i.f.d. Safarovning (2022) fikricha, “resurs keng ma’noda jamiyatda ishlab chiqarishni ta’minlashning vositalari (pul mablag‘lari, turli boyliklar, zaxiralar) va manbalarini ifodalaydi. Tabiiy resurslar tiklanadigan, qayta hosil qilinadigan va tiklanmaydigan resurslarga bo‘linadi. Mol-mulk esa moddiy va nomoddiy ne’matlarning barcha shakllarini ifoda etib, bir vaqtning o‘zida yer va yer osti boyliklarini, korxona, bino, inshootlar, mashina va uskunalari, pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar, san’at va adabiyot asarlari, ilmiy va texnikaviy ishlanmalar hamda boshqalarni qamrab oladi. Demak, tabiiy resurs va mol-mulk insoniyatning, kishilik jamiyatining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishning muhim asosi hisoblanadi”.

Akademik G‘ulomov (2001) boshchiligidagi “Mikroiqtisodiyot” darsligi mualliflari iqtisodiy resurslarni “ishlab chiqarish omillari sifatida ta’riflaydi, ya’ni ta’kidlanadiki, iqtisodiy resurslar (ishlab chiqarish omillari) – bu iqtisodiy ne’matlarni ishlab chiqarishda qatnashadigan elementlar (yer, mehnat, kapital, tadbirkorlik qobiliyati va axborot), iqtisodiy extiyoj – shaxsni, korxonani yoki jamiyatni faoliyat ko‘rsatishini va rivojlanishini ta’minlab turish uchun zarur bo‘lgan narsa, iqtisodiy extiyojni iqtisodiy faoliyatga undaydigan ichki kuch sifatida qarash mumkin”. Yana bir manbada⁵, iqtisodiy resurslarni: kapital, tashkiliy resurslar, mehnat (inson) resurslari, moliyaviy resurslar va mol-mulkka bo‘lishadi. Keyingi vaqtlarda inson resurslarini boshqa resurslarni harakatga keltiruvchi kuch va inson kapitali ham deb baholanmoqda.

Keltirilayotgan 2-rasmdan xulosa qilish mumkinki, resurslarning barchasi ham soliqqa tortilmaydi. Ularni soliqqa tortish resurslarning ishlab chiqarish va milliy xavfsizlik strategiyasi hamda jamiyat barqarorligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqib yondashiladi, bu bo‘yicha dunyoda ko‘plab o‘zaro anglashuv yuzasidan konvensiyalar, bitimlar va rezolyutsiyalar qabul qilingan. Dunyoning ko‘pgina tadqiqot markazlari resurslarning “yashovchanligi” va “qayta tug‘iluvchanligi” bo‘yicha prognozlar e’lon qilmoqda. Masalan, bunday prognozlarga ko‘ra, “alyuminiy 570-yil, temir 250-yil, qo‘rg‘oshin, rux, qalay, mis 30-yil xizmat qiladi, 2050-yilga borib insoniyat metallarning katta qismini ishlatib bo‘ladi, taxminan 150-yil davomida kimyoviy energiya tashuvchilar yetarli bo‘ladi, ko‘mir, neft, gaz, neft zaxiralari va boshqalarga qaraganda erta tugaydi. Bunday sharoitda mineral resurslardan kompleks foydalanish muammosi keskinlashadi”⁶.


²Ўзбекистон Миллий энциклопедиясининг “Р” ҳарфи тўплами.
https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20R%20harfi.pdf

³Ўзбекистон Миллий энциклопедиясининг “Т” ҳарфи тўплами.
https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20T%20harfi.pdf

⁴ <https://ru.wikipedia.org>.

⁵ <https://ru.wikipedia.org>.


⁶ <https://blog.tutoronline.ru/prirodnye-resursy>.



2-rasm. Resurslar va soliqlarning bog'liqligi

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Bunday prognozlar davlatlarni resurslardan tejamli va samarali foydalanishga qaratilgan usullarini yaratish ulardan foydalanishga bo'lgan choralarni qo'llashga undamoqda. Bunday usullar sirasiga moliyaviy dastaklar sifatida soliqqa tortish usuli bir tomondan fiskal maqsadlar (davlat budjetiga soliq tushumlarini ko'paytirish) va resurslardan foydalanishda tejamkorlik-samaradorlik tamoyiliga amal qilishni ta'minlashga xizmat qiladi.




3-rasm. Iqtisodiy resurslar

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Ba'zi manbalarda tabiiy resurslarning iqtisodiy ahamiyati haqida mulohaza keltiriladi. Jumladan, "tabiiy resurslar, bir tomondan, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va iqtisodiy rivojlanish manbayidir. Boshqa tomondan, tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmida tabiiy resurslar egasi va ulardan foydalanuvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish shakli, davlat daromadlarining asosiy manbalaridan biri bo'lgan tabiiy resurslar uchun to'lovlardir" (Пансков, 2018).

Ilmiy nazariy jihatdan olib qaralganda soliqqa tortish obyektlarini aniqlashda va ularni qonun yo'li bilan soliqqa tortish jarayonida birlamchi vazifalardan biri sifatida soliqqa tortishning maqsadini aniqlash muhim hisoblanadi. Soliqqa tortish maqsadi to'g'ri aniqlansa, demak, soliqqa tortishning adolatlilik tamoyilini o'rnatishga imkon tug'iladi. Shu jihatdan qaralganda resurslarni soliqqa tortishning maqsad yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslash o'z ahamiyatiga egadir. Yuqorida keltirilganidek, aslida resurslarni soliqqa tortish ikki xil yo'nalishda, tabiiy resurslarni soliqqa tortish hamda moliyaviy va moddiy resurslarni soliqqa tortish yo'nalishida amalga oshiriladi. Aksariyat dunyo mamlakatlarida tabiiy resurslarni soliqqa tortish asosan uch yo'nalishdagi maqsadda: tabiiy resurslardan foydalanuvchilarning resurslardan samarali foydalanishga undash, tabiiy resurslardan foydalanuvchilarning resurslardan foydalanishda tabiatga keltirgan zararlarni ularning zimmalariga yuklash va davlat budjeti daromadlarini shakllantirish (fiskal) maqsadda soliqqa tortiladi. Soliq to'lovchi tadbirkorlik subyektlari (yuridik va jismoniy shaxslar) tabiiy resurslardan foydalanish huquqini olishi bilan birgalikda tabiiy resurslardan tejamkorlik asosida majburiyatini ham oladi, bu majburiyatni bajarishning moliyaviy dastaklari sifatida soliqqa tortish katta ahamiyat kasb etadi.

Agar, tabiiy resurslarni soliqqa tortish nazariyalariga qarasak, iqtisodiyot olamida "Pigu solig'i" deb tan olingan nazariyaga ko'ra, ingliz iqtisodchisi A.Pigu g'oyasiga ko'ra, tadbirkorlar iqtisodiy faoliyatida bevosita yoki bilvosita atrof-muhitga zarar yetkazadi. Atrof-muhitga yetkazgan zararini qoplash, tabiat va jamiyatga yetkazilgan ushbu zararni qoplashlari uchun davlat tomonidan maxsus soliq to'lashlari adolatdan bo'ladi.



4-rasm. Resurslarni soliqqa tortishning maqsad yo'nalishlari

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

"Pigu solig'i" nazariyasiga ko'ra, tadbirkorlar tabiiy resurslardan foydalanishi natijasida ularda ishlab chiqarish va daromad o'sib borishi bilan birga mutanosib ravishda ularning atrof-muhitga ta'siri ham oshib boradi, buni optimallashtirish va muvofiqlashtirish uchun davlat tomonidan atrof-muhitni ifloslanish zarariga teng miqdordagi soliq joriy qilinishi

tadbirkorlar «ifloslantiradigan» mahsulotning har bir birligi uchun davlatga qandaydir miqdorda soliqlarni to'lash zarurligi tamoyili amal qilish davlat global vazifani bajarishga erishishi lozim.

Moliyaviy va moddiy resurslarni soliqqa tortish esa, resurslarni soliqqa tortishning maqsad yo'nalishlaridan biroz farq qiladi, bunda asosiy maqsad ushbu resurslardan samarali foydalanishdan ko'ra, davlatning fiskal maqsadlari ustuvorlik kasb etadi, biroq, keyingi maqsadlar sifatida albatta, moliyaviy va moddiy resurslardan ularning egalari tomonidan samarali foydalanishga undash ham turadi.

Resurslarni soliqqa tortish jarayonida faqatgina ulardan foydalanuvchilar va egalik qiluvchilardan soliqlarni undirish holati bilan birgalikda davlat bu kabi resurslarni asrash, ularning tarkibini sifat jihatdan yaxshilash, resurslarga nisbatan davlatning moliyaviy siyosatini ham nazardan qochirmaslik kerak. Chunki, agar tabiiy resurs va boshqa resurslarni saqlash, ulardan samarali foydalanishni ta'minlaydigan mexanizmlarni davlat olib bormasa, ular ham miqdor ham sifat jihatdan kamayib yoki sifati buzilishiga, provardida esa, soliqlarni undirishga hamda soliq tushumlariga ta'sir qiladi.

Agar, ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, jahon neft sanoati mavjud bo'lgan asrlik tarixda 20 milliard tonnadan ortiq neft qazib olinsa, 60 milliard tonnaga yaqini yer ostida qolgan. Shuning uchun resurslardan tejamkor foydalanish nuqtayi nazaridan ularni chuqurlikdan imkon qadar to'liq chiqarib olish texnologiyalarni qo'llashni rag'batlantirishda soliq imtiyozlaridan keng foydalaniladi, dunyoda foydali qazilmalarni qazib olish jarayonida u yoki bu sabablarga ko'ra ularning bir qismi yer ostida qolish hisobidan tabiiy resurslardan samarali foydalanilmay qolmoqda. "Biologik resurslar hayot hodisasi bilan bog'liq va shuning uchun barcha tirik mavjudotlar kabi ular ko'payishi va shuning uchun tiklanishi mumkin. Shu bilan birga, biologik resurslardan oqilona foydalanishning asosiy sharti ularni qazib olishning ilmiy asoslangan me'yorlariga qat'iy amal qilishdir. Suv va havo miqdoriy jihatdan tugamaydigan resurslardir, lekin ularning sifati tugaydi, shuning uchun ulardan oqilona foydalanish ifloslanishdan himoya qilishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, turli tozalash inshootlari qurilishi muammoni hal etmaydi.

Resurslardan kompleks foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, chiqindisiz va kam chiqindili texnologiyalarni ishlab chiqish muhimroqdir. Termoyadro energetikasi, muqobil energiya manbalari chinakam tuganmas resurslardir, lekin ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining hozirgi bosqichida insoniyatning energiyani har xil turlariga bo'lgan ehtiyojlarini faqat ular hisobiga qondirish mumkin emas"⁷.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham resurslarni soliqqa tortish jarayoni bilan bir qatorda tabiiy va boshqa resurslardan samarali foydalanish, ularni saqlash va tarkibini sifat jihatdan yaxshilash yuzasidan tadbirlar tizimi ham amal qiladi. Masalan, yer resurslarining meliorativ holatini yaxshilash maqsadida maxsus fond (Khapop, 2019) tuzilib uning mablag'laridan melioratsiya ishlarini, magistral, kollektor-drenaj tarmoqlarini mukammal ta'mirlash va tiklash maqsadida joriy ta'mirlash ishlarini tashkil qilish hamda tizimli asosda aniq, maqsadli moliyalashtirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hisobiga ularning unumdorligini oshirishga sarflanib kelinmoqda. Chunki, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatining yomonlashuvi bir tomondan qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini yanada o'stirishga va qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining daromadlarini oshirishga to'g'anoq bo'lsa, boshqa tomondan, yerlarning boniteti kamayishi hisobiga soliq tushumlarining kamayishiga ta'sir qiladi.

Xususan, "Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil davomida respublika bo'yicha jami 463,7 ming gektar maydonda, jumladan, 89,8 ming gektarda tomchilatib, 16,1 ming gektarda yomg'irlatib, 5,6 ming gektarda diskret sug'orish texnologiyalari joriy qilindi hamda 243,0 ming gektar maydonlar lazer uskunasi yordamida tekislangan, Respublikamizda 504,7 km ochiq kollektor tarmoqlari, 264,4 km yopiq-gorizont


⁷ <https://blog.tutoronline.ru/prirodnye-resursy>.

drenaj tarmoqlari, 95 ta vertikal drenaj quduqlari, 16 ta gidrotexnik inshootlarda qurilish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi, shuningdek, 15 455,0 km kollektor-drenaj tarmoqlari, 136 ta vertikal drenaj quduqlar, 2 274 ta kuzatuv quduqlar va 1 173 ta gidrotexnik inshootlarda ta'mirlash-tiklash ishlari bajarilgan"⁸. Ushbu tadbirlar natijasida esa, 294,5 ming gektar maydonning meliorativ holati yaxshilanishiga, sho'rlangan yer maydonlarini 1 891,9 ming gektargacha kamayishiga, kuchli va o'rta sho'rlangan sug'oriladigan yer maydonlarini 548,0 ming gektargacha kamaytirishga hamda 133,7 ming gektardan ziyod yerlar qayta foydalanishga kiritilishiga erishilganki, o'z navbatida bu yer solig'i bo'yicha soliq tushumlarining oshishiga ham ta'sir qilgan.

Agar, bunga yer osti tabiiy resurslarning holati bo'yicha qaraydigan bo'lsak, Davlat geologiya qo'mitasi ma'lumotlariga asosan, "O'zbekistonda foydali qazilmalar zahiralari davlat reyestriga muvofiq 2000 dan ortiq konlar, shu jumladan, qurilish materiallar - 814, chuchuk va mineral suvlar - 624, uglevodorodlar - 235, metal - 152, metall bo'lmagan - 37, kimyoviy - 32, manzarali tosh - 30, ko'mir va shifer - 7 ta aniqlangan, 111 istiqbolli maydonlar va 29 ta strategik muhim foydali qazilma konlarining ro'yxati tasdiqlangan.

Geologik qidiruv ishlari doirasida "qimmatbaho metallar - prognoz resurslari bilan 31 ta maydon: oltin - 151 tonna, kumush - 1200 tonna, rangli metallar - 18 ta maydon, bashorat qilingan resurslar: mis - 1,6 mln. tonna, ruh - 3,9 million tonna, qo'rg'oshin - 3,1 million tonna, kamyob metallar - 33 ta hudud, bashorat qilinadigan resurs: noyob tuproq elementlari - 1780 tonna, qalay - 1400 tonnadan ortiq, volfram - 1 million tonnadan ortiq, uran - 105 ming tonna"⁹ yer qa'ri boyliklari aniqlangan bo'lib, ulardan yuqorida keltirib o'tilgan maqsadlarda foydalanish va soliqqa tortish tartiblari amal qilib kelinmoqda.

Keltirilgan tahlillardan ham xulosa qilish mumkinki, davlat o'zining turli xil yo'nalishdagi, ayniqsa, iqtisodiy-moliyaviy siyosati orqali jamiyat ixtiyoridagi barcha resurslardan jamiyat taraqqiyoti uchun maqsadli va samarali foydalanishning mexanizmlarini ishga solib, bu yo'nalishda aniq choralar ko'rib boradi. Shulardan kelib chiqqan holda resurslarni soliqqa tortishda davlatning asosiy yondashuvlarini tushunarli bo'lishini quyidagi keltirilayotgan rasmda ifoda etamiz.



5-rasm. Resurslarni soliqqa tortishda davlat soliq siyosatidagi asosiy yondashuvlar

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

⁸ <https://water.gov.uz/uz/page/1/1>.

⁹ <https://www.uzgeolcom.uz/uz/page/78>.

Bundan tashqari soliq to'lovchining mulki bo'lgan ko'chmas mulk shaklidagi resurslardan uning egalari tomonidan samarali foydalanishni rag'batlantirish maqsadida soliqdan ma'lum imtiyozlar yoki samarasiz foydalanilgan bu turdagi resurslar uchun esa ko'proq soliq solish siyosatini qo'llaydi, bundan asosiy maqsad esa, ko'chmas mulk aslida ma'lum bir qiymatga ega bo'lib, korxonaning mulkidan samarali foydalanish ham davlat uchun ham soliq to'lovchi uchun ham manfaatli bo'ladi va buni soliq tizimi orqali ham davlatning doimiy nazoratida bo'lishi tabiiy hol va iqtisodiy extiyoj sanaladi.

Resurslarni soliqqa tortishda ularning soliq obykti sifatida belgilab olinishi muhim hisoblanadi. Keltirilgan 7-rasmdan ko'rish mumkinki, O'zbekiston soliq qonunchligida resurslar iqtisodiy mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda tegishli soliq turlarining obykti sifatida belgilangan. Jumladan, tugamaydigan (quyosh energiyasi, shamol, yer, havo) tabiiy-iqtisodiy resurslar elektr energiyasi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi va soliq bazasini yuzaga keltiradi, shu jihatdan ularning soliq bazasini shakllanishiga bog'liqligi mavjud bo'ladi. Tugaydigan-tiklanadigan (yer osti boyliklari, suv, o'rmon, hayvonlar), tiklanmaydigan (kamyob yer osti boyliklari, yer) resurslar esa, muhim strategik tovarlar, qurilish, sanoat xom-ashyosi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishirish, oziq-ovqat mahsulotlarining muhim omili va manbayi muhim doimiy soliq bazasini yuzaga keltiradi. Shunday tartibda tabiiy va iqtisodiy resurslarining xususiyatlariga qarab, soliq obykti sifatida to'g'ridan to'g'ri bog'liqligi yoki bilvosita, ya'ni, soliq bazasini yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishimizning mazkur qismi bo'yicha ilmiy-nazariy tahlillarimizdan kelib chiqib, **umumiy xulosalar sifatida ta'kidlash mumkinki**, resurslarni soliqqa tortishda, birinchidan ularning ichki va tashqi xususiyatlari, ularning milliy iqtisodiyotda muhim strategik ahamiyatliligi, ulardan foydalanuvchilarning samarali foydalanishga undaydigan jarayonning zarurligi, ularning nafililigi, soliq to'lovchining mulki bo'lgan ko'chmas mulk shaklidagi resurslardan uning egalari tomonidan samarali foydalanishni rag'batlantirish maqsadida soliqdan ma'lum imtiyozlar yoki samarasiz foydalanilgan bu turdagi resurslar uchun esa ko'proq soliq solish siyosatini va shu kabi muhim omillardan kelib chiqib yondashiladi. Resurslarni soliqqa tortish masalasini tadqiqi bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini nazariy tahlil qilishni ham taqozo etadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, resurslarni soliqqa tortish tizimi davlat moliyaviy siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlashda bevosita rol o'ynaydi. Resurs soliqlarini samarali tashkil etish orqali davlat byudjetiga barqaror daromad manbalari yaratish bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish ham mumkin.

Resurs soliqlari fiskal siyosatning muvozanatli instrumenti sifatida nafaqat daromad manbai, balki iqtisodiy tartibga solish vositasi hisoblanadi. Tabiiy resurslarni soliqqa tortishning asosiy nazariy prinsiplari — adolat, samaradorlik, barqarorlik va ekologik javobgarlik tamoyillariga asoslanadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, resurs soliqlari stavkalari bozor sharoitlariga mos ravishda moslashuvchan belgilansa, iqtisodiy o'sishni to'xtatmasdan barqaror byudjet daromadlarini ta'minlash mumkin. O'zbekistonda resurs soliqlarini belgilashda mavjud resurslardan foydalanish hajmi, ekologik zarar va qayta tiklanish imkoniyati omillari yetarlicha inobatga olinmayapti.

Resurs soliqlari tizimini tabaqalashtirish. Tabiiy resurs turlari bo'yicha soliqlarni differensial (darajali) tizim asosida belgilash, ya'ni resurslardan foydalanish hajmi, ekologik ta'sir va foyda miqdoriga qarab soliq stavkalarini o'zgartirish. Ekologik soliqlarni kengaytirish. Resurslardan foydalanishda ekologik zarar ko'rsatkichini inobatga oluvchi "yashil soliq" mexanizmlarini joriy etish. Raqamli nazorat tizimini joriy etish. Resurslardan foydalanish, qazib olish va eksport qilish jarayonlarini raqamli kuzatish imkonini beruvchi

integratsiyalashgan soliq monitoring tizimini yaratish. Soliq stavkalarini iqtisodiy rag'batlantirish bilan uyg'unlashtirish. Resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy qilgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari va preferensiyalarini nazarda tutish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasida resurs soliqlari tizimini takomillashtirish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish hamda ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Barulin, S.V. (2010). *Finance*. – Moscow, KNORUS, 640 p.

Bodi, Zv., Merton R.K. (2013). *Finance*. – Moscow, Publishing House "Williams", 2013.

Bolshakov, S.V. (2006). *Finance companies. Theory and practice*. – Moscow: Book World, 2006. – 617 p.

Kuznetsov, S.A. (1998). *Great Dictionary of the Russian language*. – St. Petersburg, "Norint"

Nasimdjanoj Yunusjon Zoxidovich (2025) "Resurslarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish" I.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati –T.: -18 b.

Sokolska, T.V. (2014). *Financial support for agriculture. Economy and management of agribusiness*, issue 1, p. 140-146.

Zyatkovskyy, I.V. (2000). *The financial support of business* – Ternopol, Economic thought, 215 p.

Ѓуломов С.С., Алимов Р.Х., Салимов Б.Т. ва бошқ, (2001) Микроиқтисодиёт: Олий ўқув юртлири учун дарслик / –Т.: «Шарқ», -320б. 15 бет.

Кодекс (2020) Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. –Тошкент: Ѓафур Ѓулом наشريёт уйи. 640 б.

Қарор (2019) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 31.10.2007 ў. ПҚ-718-сон қарори билан Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш жамғармаси ташкил қилинган ва кийинчалик бу жамғарма Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 ўил 26 декабрдаги Ўзбекистон Республикасининг 2019 ўилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари ҳамда 2020-2021 ўилларга бюджет мўлжаллари тўғрисидаги қарори билан тугатилган.

Қурбанов Д.Р. (2020) Ўзбекистон республикасида сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг молиявий механизмларини такомиллаштириш. И.ф.д (DSc)... дис... автореферати. – Т.: -38 б.

Пансков В.Г. (2018) Налогообложение природных ресурсов: проблемы и пути решения, <https://cyberleninka.ru/article/n/nalogooblozhenie-prirodnih-resursov-problemy-i-puti-resheniya/viewer>.

Сафаров Ѓ. (2022) Табиий ресурс ва мол-мулкларни солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш масалалари: Монография / Ѓ.А. Сафаров – Т.: "Iqtisod-Moliya", – 7 б.

Сафаров Ѓ.А. (2006) Хўжалик юритувчи субъектларнинг табиий ресурслардан самарали фойдаланишини солиқлар воситасида рағбатлантириш. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. –Т.: Академия. - 26 б.

Тошқулов А.Х. (2021) "Қишлоқ хўжалиги корхоналари иқтисодий фаолиятини солиқлар воситасида рағбатлантириш масалалари". И.ф.д (DSc)... дис... автореферати. – Т.: -47 б